



TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOG KADRLARNING MALAKASINI OSHIRISHNING AHAMIYATI

Bekturdiev Aybek Elmuratovich

*Nukus davlat texnika universiteti Telekommunikatsiya injiniringi
fakulteti Sun'iy intellekt va kiberxavfsizlik kafedrası assistent o'qituvchisi*

Berdimuratova Aysanem Saylawbaevna

*Nukus davlat texnika universiteti Telekommunikatsiya injiniringi
fakulteti talabasi*

Bugungi kunda o'rta ta'lim maktablarining ta'lim sifatini oshirishda pedagog kadrlarning ta'lim darajasini oshirish muhim hisoblanadi. Pedagog kadrlar malakasini oshirish, uzluksiz izlanish, rivojlanish bu pedagogning ta'lim sifati o'sishi va samarali bo'lishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi[1]. Mamlakatimizda pedagogika sohasida "kasbiy-pedagogik ta'lim" tushunchasi 1992-yildan boshlab qo'llanila boshlandi. Hozirgi kunda pedagogika fani bilan chambarchas bog'liq.

Pedagog kadrlar malakasini oshirish - ta'limni rivojlantirishning strategik vazifalaridan biri, shunga ko'ra bu yo'nalishning ahamiyatini past baholab bo'lmaydi[2]. O'quvchilarni tarbiyalash va ijtimoiylashtirish haqida so'z borganda, pedagog kadrlar malakasini oshirish masalasi yanada dolzarbdir.

Kasb-hunar ta'limi pedagogi - kasb-hunar ta'limi tizimida o'quvchilarni kasbga tayyorlash bo'yicha pedagogik, o'quv, tashkiliy-metodik ishlarni amalga oshiruvchi oliy ma'lumotli mutaxassis[3]. Ushbu faoliyatning asosiy maqsadi ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish, kasbiy faoliyatni amalga oshirishga yordam beradigan ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish, ularning normativ rejada belgilangan ta'lim jarayoni natijalariga erishishini ta'minlashdan iborat. Kasbiy va shaxsiy rivojlanish uchun pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, soha bo'yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish pedagogning kasbiy faoliyati uchun muhim komponent hisoblanadi. Shuningdek, ta'lim dasturlarini amalga oshirishni har tomonlama metodik ta'minlash zarur.

Har qanday ijtimoiy faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishni nazarda tutadi[4]. Professional-pedagogik ta'lim sohasida ularning asosiylarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- iqtisodiy - o'quvchilarning kasbiy mahoratini shakllantirish orqali ishchi kuchini qayta ishlab chiqarishda ishtirok etish;
- ijtimoiy-iqtisodiy - ijtimoiy ishlab chiqarishning malakali xodimlarini tayyorlash;
- ijtimoiy - har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish.



Pedagogning kompetensiyasiga bo'lgan talablar esa uning o'z faoliyatida amalga oshirishi lozim bo'lgan funksional vazifalariga bog'liq tavsiflanadi[5], bu esa o'z navbatida kasbiy va metodik kompetensiya kabi fenomenlarni o'rganish zaruratini dolzarblashtiradi.

Bu jarayonlarni amalga oshirishda ta'limning turli shakllaridan foydalanish mumkin: kunduzgi, masofaviy, elektron[6].

Quyida malaka oshirishning afzalliklari keltirilgan:

- kasbiy bandlik - ko'plab ko'nikmalarga ega bo'lgan kasbiy faoliyat o'qituvchisi talabga ega, chunki u ishning o'zgaruvchan xususiyatiga moslasha oladi, yangi metodikalar, texnologiyalar va usullarni qo'llay oladi;

- stressga chidamlilik - kasbiy talablarga javob beradigan malakali tayyorgarlik stressni yumshatadi va o'zini o'zi hurmat qilish darajasini oshiradi;

- motivatsiya va ishdan zavq olish - malaka oshirish jarayonida o'qituvchi ta'lim sohasidagi yangi ishlanmalar bilan tanishadi, bu esa uni raqobatbardosh malakali mutaxassis sifatida namoyon etadi, demakki, uni o'z vazifalarini sifatli bajarishga undaydi.

Shunday ekan, ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy usullardan foydalana bilish, kasbiy rivojlanishda bir cho'qqida to'xtab qolmasdan, yanada malaka oshirish bilan shug'ullanilsa kutilgan natijaga bimalol erishish mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini oshirishda pedagog kadrlarning malakasini oshirish muhim hisoblanadi. Pedagog kadrlar malakasini oshirish, uzluksiz izlanish, rivojlanish bu pedagogning ta'lim sifati o'sishi va samarali bo'lishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kasbiy va shaxsiy rivojlanish uchun pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, soha bo'yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish pedagogning kasbiy faoliyati uchun muhim komponent hisoblanadi. Pedagogning kompetensiyasiga bo'lgan talablar esa uning o'z faoliyatida amalga oshirishi lozim bo'lgan funksional vazifalariga bog'liq holda tavsiflanadi. Ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy usullardan foydalana bilish, kasbiy rivojlanishda bir cho'qqida to'xtab qolmasdan, yanada malaka oshirish bilan shug'ullanilsa kutilgan natijaga bimalol erishiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. BA Elmuratovich. TA'LIM SIFATINI OSHIRISH METODIKASI // AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING, 2025/1/7. B. 170-175
 2. BA Elmuratovich. TEMURBEKLAR MAKTABIDA TA'LIM SIFATINI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA AVTOMATLASHTIRISH METODIKASI // PEDAGOG, 2025. 133-138
 3. AE Bekturdiev, ZA Ilyasov. Yuqori sinf o 'quvchilarining bilim sifatini matlab dasturiy vositasi asosida qattiy mas mantiqdan foydalanib monitoring qilish // МУҒАЛЛИМ ҲАМ ЎЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ, ISSN, 2181-7138
 4. AE Bekturdiev. TA'LIMNI O 'QITISH VA O 'RGANISHDA SUN'IY INTELLEKT ALOLRITMLARIDAN FOYDALANISH // SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 2025/1/13. B. 153-159
- Qo'shimcha adabiyotlar
5. [https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/49064/1/HE in Russia-2017-30.pdf](https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/49064/1/HE_in_Russia-2017-30.pdf)
 6. <https://cyberleninka.ru/article/n/razvitie-sistemy-nepreryvnogo-povysheniya-kvalifikatsii-pedagogicheskikh-kadrov-v-usloviyah-realizatsii-regionalnoy-innovatsionnoy>